



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023-yil 1-aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 42,2 mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 36,1 mingta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 89,2 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 88,0 foiz) tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan

Ro‘yxatdan o‘tgan





Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar


2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

2023- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 254 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 974 taga ko'paygan.


Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	380	5,6 %
Qo'qon shahar	193	4,2 %
Quva tumani	162	8,1 %
Quvasoy shahar	147	9,4 %
Marg'ilon shahar	122	3,4 %
Oltiariq tumani	117	5,1 %
Toshloq tumani	116	5,8 %
Bag'dod tumani	110	6,5 %
Dang'ara tumani	104	5,1 %
O'zbekiston tumani	101	5,1 %


Buvayda tumani	99	5,1 %
Beshariq tumani	91	5,9 %
Uchko'prik tumani	88	4,2 %
Farg'ona tumani	87	4,6 %
Rishton tumani	72	4,3 %
Yozyovon tumani	66	6,6 %
So'x tumani	63	5,7 %
Qo'shtepa tumani	62	4,3 %
Furqat tumani	50	4,5 %

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni so'ngi besh yilda (26 627 ta) 15 682 taga ko'payganni quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli ko'paygani bilan ifodalash mumkin: savdo – 5 542 tadan 14 090 taga (o'sish 8 548 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida –1 446 tadan 1 843 taga (o'sish 397 ta), sanoat – 5 518 tadan 8 385 taga (o'sish 2 867 ta).

Hududlar kesimida


Farg'ona shahar	6 815	Farg'ona tumani	1 894
Qo'qon shahar	4 574	Rishton tumani	1 693
Marg'ilon shahar	3 541	Bag'dod tumani	1 686
Oltiariq tumani	2 274	Quvasoy shahar	1 569
Uchko'priq tumani	2 105	Beshariq tumani	1 549
Dang'ara tumani	2 047	Qo'shtepa tumani	1 441
Quva tumani	1 991	Furqat tumani	1 122
O'zbekiston tumani	1 991	So'x tumani	1 107
Toshloq tumani	1 985	Yozyovon tumani	999
Buvayda tumani	1 926		

2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda.

2023-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 198 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 2 195 ta;
- yirik korxonalar 3 tani nani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Farg'ona shahar	366	6,3 %	Buvayda tumani	98	5,9 %
Qo'qon shahar	191	4,7 %	Beshariq tumani	90	7,1 %
Quva tumani	157	9,3 %	Uchko'prik tumani	88	4,7 %
Quvasoy shahar	147	10,6 %	Farg'ona tumani	87	5,5 %
Marg'ilon shahar	122	3,8 %	Rishton tumani	72	5,2 %
Toshloq tumani	116	6,6 %	Yozyovon tumani	65	8,2 %
Oltiariq tumani	115	5,8 %	So'x tumani	63	6,7 %
Bag'dod tumani	109	7,8 %	Qo'shtepa tumani	61	5,1 %
Dang'ara tumani	103	5,7 %	Furqat tumani	48	5,2 %
O'zbekiston tumani	100	5,9 %			

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- aprel holatiga 36,3 mingtaga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 138,9 foizni tashkil etdi (10,1 mingta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,7 foiz, sanoat – 23,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 5,0 foiz, qurilish – 8,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,1 foiz, tashish va saqlash – 4,3 foiz, axborot va aloqa – 2,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,8 foiz, boshqa turlari – 9,7 foiz.

Hududlar kesimida


Farg'ona shahar	5 815	Farg'ona tumani	1 583
Qo'qon shahar	4 047	Bag'dod tumani	1 392
Marg'ilon shahar	3 191	Quvasoy shahar	1 389
Oltiariq tumani	1 993	Rishton tumani	1 374
Uchko'prik tumani	1 859	Beshariq tumani	1 267
Dang'ara tumani	1 797	Qo'shtepa tumani	1 203
Toshloq tumani	1 797	So'x tumani	939
Quva tumani	1 683	Furqat tumani	923
O'zbekiston tumani	1 682	Yozyovon tumani	797
Buvayda tumani	1 667		

2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda



Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2023- yil yanvar-mart oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan 760 tadan 887 taga (o'sish 127 taga), sanoat – 416 tadan 487 taga (o'sish 71 taga) ko'paydi.

Hududlar kesimida


Farg'ona shahar	365	6,4 %	Buvayda tumani	98	5,9 %
Qo'qon shahar	191	4,8 %	Beshariq tumani	90	7,1 %
Quva tumani	157	9,4 %	Uchko'prik tumani	88	4,8 %
Quvasoy shahar	147	10,7 %	Farg'ona tumani	86	5,5 %
Marg'ilon shahar	122	3,8 %	Rishton tumani	72	5,3 %
Oltiariq tumani	115	5,8 %	Yozyovon tumani	65	8,2 %
Toshloq tumani	115	6,5 %	So'x tumani	63	6,7 %
Bag'dod tumani	109	7,9 %	Qo'shtepa tumani	61	5,1 %
Dang'ara tumani	103	5,8 %	Furqat tumani	48	5,2 %
O'zbekiston tumani	100	6,0 %			

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



1 791

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



14 052

Savdo



855

Axborot va aloqa



8 317

Sanoat



1 551

Tashish va saqlash



990

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

2 899

Qurilish



2 233

Yashash va ovqatlanish



3 455

Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Farg'ona shahrida (15,9 foiz), Qo'qon shahri (11,1 foiz), Marg'ilon shahri (8,8 foiz), Oltiariq (5,5 foiz) va Uchko'priq (5,1 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

Hududlar kesimida


Farg'ona shahar	5 746	Farg'ona tumani	1 564
Qo'qon shahar	4 013	Bag'dod tumani	1 386
Marg'ilon shahar	3 182	Quvasoy shahar	1 378
Oltiariq tumani	1 990	Rishton tumani	1 370
Uchko'priq tumani	1 837	Beshariq tumani	1 265
Dang'ara tumani	1 791	Qo'shtepa tumani	1 197
Toshloq tumani	1 758	So'x tumani	935
O'zbekiston tumani	1 678	Furqat tumani	921
Quva tumani	1 674	Yozyovon tumani	796
Buvayda tumani	1 662		

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Toshloq tumani	148
Quva tumani	147
So'x tumani	146
Dang'ara tumani	142
Farg'ona shahar	131
Farg'ona tumani	130
Quvasoy shahar	123
Oltiariq tumani	116
Qo'shtepa tumani	107
Beshariq tumani	80
Uchko'prik tumani	78
O'zbekiston tumani	76
Bag'dod tumani	74
Rishton tumani	67
Buvayda tumani	66
Qo'qon shahar	64
Yozyovon tumani	60
Furqat tumani	45
Marg'ilon shahar	43




O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot

yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Qo'qon shahar	1 061
Farg'ona shahar	919
Marg'ilon shahar	785
Uchko'prik tumani	563
Dang'ara tumani	531
O'zbekiston tumani	487
Buvayda tumani	447
Rishton tumani	433
Toshloq tumani	392
Bag'dod tumani	382
Quva tumani	372
Oltiariq tumani	358
Farg'ona tumani	277
Quvasoy shahar	263
Qo'shtepa tumani	258
Beshariq tumani	247
Yozyovon tumani	221
So'x tumani	203
Furqat tumani	186



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 106,7 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 19,8 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,8 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yil ning mos davriga nisbatan o'sish 83,1 foiz), 2,1 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 88,7 foiz), 1,0 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 66,9 foiz) va 1,1 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 129,6 foiz) tashki etgan.



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	778
Qo'qon shahar	243
Marg'ilon shahar	230
Uchko'prik tumani	167
Bag'dod tumani	134
Farg'ona tumani	129
Oltiariq tumani	127
Quva tumani	116
Toshloq tumani	112
O'zbekiston tumani	107
Quvasoy shahar	101
Dang'ara tumani	99
Buvayda tumani	98
Yozyovon tumani	91
Rishton tumani	88
Qo'shtepa tumani	78
Beshariq tumani	78
Furqat tumani	76
So'x tumani	75



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 77,9 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 13,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,1 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 31,1 foiz ulushni va 75,7 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

407



Fuqarolik
obyektlarini qurish

911

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

1 609


Bino va
inshootlar qurish



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	1 779
Qo'qon shahar	1 600
Marg'ilon shahar	1 362
Uchko'prik tumani	772
Toshloq tumani	748
Buvayda tumani	706
Dang'ara tumani	698
Oltiariq tumani	692
Quva tumani	676
Farg'ona tumani	671
O'zbekiston tumani	653
Quvasoy shahar	563
Qo'shtepa tumani	538
Beshariq tumani	529
Bag'dod tumani	525
Furqat tumani	458
Rishton tumani	444
So'x tumani	377
Yozyovon tumani	299



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 14 052 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 59,6 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 93,0 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 30,8 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 98,7 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 90,1 foizni tashkil etdi.

1 352

Avtomobil
va mototsikllarning
ulgurji va chakana
savdosi va ularni
ta'mirlash

4 338

Avtomobil
va mototsikllar
savdosidan tashqari
ulgurji savdo


8 400

Avtomobil
va mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	501
Qo'qon shahar	230
Marg'ilon shahar	146
Oltiariq tumani	139
Rishton tumani	135
Bag'dod tumani	122
Quva tumani	112
O'zbekiston tumani	98
Dang'ara tumani	96
Farg'ona tumani	95
Buvayda tumani	85
Quvasoy shahar	83
Beshariq tumani	80
Toshloq tumani	73
Qo'shtepa tumani	70
Uchko'prik tumani	61
Furqat tumani	49
Yozyovon tumani	40
So'x tumani	27



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan 127,5 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,0 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,0 foiz ulushini tashkil etdi.

156

Yashash bo'yicha xizmatlar

**2 086**


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Farg'ona shahar	287
Marg'ilon shahar	133
Qo'qon shahar	83
Toshloq tumani	43
Quva tumani	42
Qo'shtepa tumani	33
Rishton tumani	27
Oltiariq tumani	26
Beshariq tumani	26
Buvayda tumani	25
Dang'ara tumani	23
Bag'dod tumani	20
Farg'ona tumani	20
Quvasoy shahar	20
O'zbekiston tumani	17
Uchko'prik tumani	13
Furqat tumani	12
Yozyovon tumani	5
So'x tumani	5



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 13,0 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 81,2 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 57,3 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 66,2 foizni tashkil etdi,


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 29,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 102,4 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	263
Qo'qon shahar	145
Marg'ilon shahar	85
Farg'ona tumani	65
Buvayda tumani	63
O'zbekiston tumani	57
Toshloq tumani	55
Oltiariq tumani	55
Uchko'prik tumani	55
Beshariq tumani	52
Quva tumani	46
Dang'ara tumani	39
Rishton tumani	37
Qo'shtepa tumani	36
So'x tumani	30
Bag'dod tumani	28
Furqat tumani	27
Yozyovon tumani	19
Quvasoy shahar	16



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 999 ta yoki 85,2 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

90,7 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,2 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 71,2 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 6,1 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 105,9 foizni tashkil etdi;

72

Yashash uchun
joy bilan
ta'minlanmagan
holda ijtimoiy
xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy
bilan ta'minlangan
holda parvarishlash

37




1 064

Sog'liqni saqlash
sohasidagi
faoliyat

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Oltiariq tumani	315
Farg'ona shahar	284
Qo'qon shahar	198
Marg'ilon shahar	96
Quvasoy shahar	82
Toshloq tumani	66
Quva tumani	61
Farg'ona tumani	55
Beshariq tumani	54
Dang'ara tumani	51
O'zbekiston tumani	49
Uchko'prik tumani	49
Buvayda tumani	42
Rishton tumani	40
Qo'shtepa tumani	32
So'x tumani	29
Bag'dod tumani	25
Yozyovon tumani	21
Furqat tumani	19



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,7 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o'sish sur'ati 92,1 foizni tashkil etdi;


ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 89,7 foizni;

pochta va kuryerlik yo'nalishi 92,3 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 83,3 baravarga oshgan;

suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 1 tani tashkil etdi.



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot***2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda***Tadbirkorlik
subyektlari soni****Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi**


Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	274	7,1 %	Dang'ara tumani	67	6,0 %
Qo'qon shahar	160	4,9 %	Uchko'prik tumani	61	5,4 %
Quva tumani	113	11,8 %	Farg'ona tumani	60	7,3 %
Marg'ilon shahar	107	5,0 %	Yozyovon tumani	59	11,0 %
Toshloq tumani	105	8,9 %	Qo'shtepa tumani	55	6,5 %
Oltiariq tumani	87	9,0 %	Bag'dod tumani	50	10,1 %
O'zbekiston tumani	78	7,2 %	Rishton tumani	46	10,9 %
Buvayda tumani	77	9,2 %	So'x tumani	33	9,8 %
Quvasoy shahar	75	9,4 %	Furqat tumani	30	6,6 %
Beshariq tumani	71	10,8 %			

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 36,3 mingta tijorat korxona va tashkilotlarining 21,9 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar viloyatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda – 111,3 foiz, savdoda – 100,0 foiz, tashish va saqlashda – 93,9 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 93,7 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Fatg'ona shahar **3 834**Qo'qon shahar **3 259**Marg'ilon shahar **2 141**Toshloq tumani **1 176**Uchko'prik tumani **1 132**Dang'ara tumani **1 125**O'zbekiston tumani **1 089**Oltiariq tumani **969**Quva tumani **955**Qo'shtepa tumani **850**Buvayda tumani **840**Farg'ona tumani **817**Quvasoy shahar **802**Beshariq tumani **656**Yozyovon tumani **536**Bag'dod tumani **497**Furqat tumani **455**Rishton tumani **421**So'x tumani **338**

2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 21 taga, sanoat 25 taga ko'paygan.


Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	74	5,4 %	Marg'ilon shahar	9	1,8 %
Bag'dod tumani	51	8,6 %	Beshariq tumani	7	1,9 %
Quvasoy shahar	28	10,6 %	Rishton tumani	6	1,6 %
Quva tumani	19	3,7 %	Toshloq tumani	4	1,0 %
Farg'ona tumani	17	3,2 %	O'zbekiston tumani	4	1,6 %
So'x tumani	16	3,4 %	Furqat tumani	4	1,8 %
Buvayda tumani	15	2,5 %	Dang'ara tumani	3	1,1 %
Qo'qon shahar	13	3,6 %			
Uchko'prik tumani	12	2,6 %			
Oltiariq tumani	9	1,8 %			

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,7 foizga kamaydi.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan kamayishiga axborot va aloqa (59,5 foiz), qurilish (64,1 foiz), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (73,2 foiz), hududlar kesimida esa – Qo'shtepa (64,3 foiz), O'zbekiston (65,0 foiz), Farg'ona shahri (67,8 foiz) va Buvayda (71,5 foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida


Farg'ona shahar	1 372	Rishton tumani	375
Marg'ilon shahar	733	Beshariq tumani	362
Buvayda tumani	600	Qo'qon shahar	360
Bag'dod tumani	590	Dang'ara tumani	276
Farg'ona tumani	535	Quvasoy shahar	264
Quva tumani	514	O'zbekiston tumani	251
Oltiariq tumani	497	Furqat tumani	225
So'x tumani	472	Qo'shtepa tumani	207
Uchko'prik tumani	464	Yozyovon tumani	183
Toshloq tumani	388		

2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Oilaviy korxona – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Quvasoy shahar	44	15,9 %	Beshariq tumani	12	5,5 %
Dang'ara tumani	33	8,8 %	Uchko'prik tumani	11	4,6 %
Quva tumani	23	12,1 %	Farg'ona tumani	9	4,3 %
Rishton tumani	20	3,6 %	Bag'dod tumani	7	2,5 %
Oltiariq tumani	19	4,0 %	Toshloq tumani	7	3,8 %
O'zbekiston tumani	18	5,5 %	Qo'shtepa tumani	6	4,6 %
Farg'ona shahar	18	3,6 %	Yozyovon tumani	6	9,4 %
Qo'qon shahar	18	4,7 %	Marg'ilon shahar	6	2,0 %
So'x tumani	14	14,6 %	Buvayda tumani	5	2,3 %
Furqat tumani	13	5,7 %			

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni so'ngi uch yilda 1 449 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalaridagi korxonalar: savdoda – 752 tadan 1 668 taga (o'sish 916 ta), sanoatda – 1 743 tadan 2 026 taga (o'sish 283 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 527 tadan 736 taga (o'sish 209 ta) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida,

Rishton tumani.	559
Farg'ona shahar	505
Oltiariq tumani	476
Qo'qon shahar	384
Dang'ara tumani	376
O'zbekiston tumani	328
Marg'ilon shahar	294
Bag'dod tumani	281
Quvasoy shahar	276
Uchko'prik tumani	237


Furqat tumani	228
Beshariq tumani	220
Buvayda tumani	217
Farg'ona tumani	211
Quva tumani	190
Toshloq tumani	182
Qo'shtepa tumani	131
So'x tumani	96
Yozyovon tumani	64

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot


2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.


Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	9	6,0 %	Uchko'prik tumani	1	5,9 %
Bag'dod tumani	2	15,4 %	Furqat tumani	1	9,1 %
Quva tumani	2	9,5 %	Qo'qon shahar	1	1,8 %
O'zbekiston tumani	2	9,1 %	Quvasoy shahar	1	3,4 %
Beshariq tumani	1	9,1 %			

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2.2 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 121 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,5 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Farg'ona viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 11,0 foiz), Xitoy (ulushi 21,1 foiz), Qirg'iston (ulushi 5,0 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 7,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	149
Qo'qon shahar	55
Quvasoy shahar	29
Marg'ilon shahar	28
O'zbekiston tumani	22
Quva tumani	21
Farg'ona tumani	20
Oltiariq tumani	18
Uchko'prik tumani	17
Dang'ara tumani	16

Bag'dod tumani	13
Beshariq tumani	11
Furqat tumani	11
Toshloq tumani	11
Rishton tumani	10
Buvayda tumani	7
So'x tumani	7
Yozyovon tumani	6
Qo'shtepa tumani	5

2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda

	Hududlar nomi	soni
	Rossiya Federatsiyasi	5
	Xitoy Xalq Respublikasi	3
	Janubiy Koreya Respublikasi	2
	Germaniya Federativ Respublikasi	2
	Tojikiston Respublikasi	2
	Belorussiya Respublikasi	1
	Hindiston Respublikasi	1
	Belgiya Qirolligi	1
	Yaponiya	1
	Turkiya Respublikasi	1
	Turkmaniston	1

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 268 tasi qo'shma korxonalar, 188 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar
qo'shma korxonalar

69	Farg'ona shahar	80
28	Qo'qon shahar	27
6	Quvasoy shahar	23
11	Marg'ilon shahar	17
6	O'zbekiston tumani	16
9	Quva tumani	12
7	Farg'ona tumani	13
6	Oltiariq tumani	12
8	Uchko'priq tumani	9
7	Dang'ara tumani	9
2	Bag'dod tumani	11
8	Beshariq tumani	3
5	Toshloq tumani	6
4	Furqat tumani	7
2	Rishton tumani	8
4	Buvayda tumani	3
-	So'x tumani	7
5	Yozyovon tumani	1
1	Qo'shtepa tumani	4

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish
va tizimli xizmat
koʻrsatish boʻlimi
Tel.:(73) 244-65-76